



SHAXSIY O'ZARO MUNOSABATLARDA MULOQOTNING O'RNI

Allambergenova Baxtigul Bekbergenovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qanliko 'l tumani 11-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi shaxslararo munosabatlar va muloqotning o'rni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Oilada muloqot; muloqot jarayonida yuzaga keladigan to`siqlar; oiladagi munosabatlar psixologiyasi, xulq-atvor, nosog'lom muhit, tanqid.

Shaxslararo munosabatlarda muhim o'rin tutadigan qism muloqot hisoblanadi. Odamlar orasidagi muloqot va uning umumiyligi qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo`ladigan o'zaro munosabatlarning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Odamning aqli irodasi, hissiy madaniyati, muloqot tufayli shakllangan xislatdir. Hozirgi kunda insonlarning ruhiy zo`riqishi va ta'sirlanuvchanligining kuchayib Yoshlar va zamon. Ijtimoiy-ma'naviy o`zgarishlarning o`ziga xos xususiyatlari, muammo va yechimlar talqiniborishi muloqot madaniyatining yuqori darajada bo`lishini talab qiladi. Insonlardagi muloqot madaniyatini o`z o`zini bilishi va boshqalarni tushuna olish qobiliyati, ularning psixologik xususiyatlarini to`g`ri baholay olishi, shaxsning individual xususiyatlariga mos keladigan muloqot shakli usullarini tanlay bilishi kerak.

Hozirgi vaqtida oilada ota-onalar o`z farzandlari yaxshi munosabatda, muloqotda, yaxshi muomalada bo`lishlari juda katta ahamiyatga ega bo`lib kelmoqda. Chunki har bir bolaga oiladagi munosabatlar, er-xotin munosabatlari, bilan kelishmovchiliklar, tushunmovchiliklar ularning psixikasiga



juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Farzandlarimiz hozirgi vaqtda juda o'ta ta'sirchan. Oilada oila a'zolarining befarqligi, e'tiborsizligi, qo'polligi, bemehrligi, behurmatliklari samimiy muloqotga putur yetkazadi. Agar oiladagilar bir-birlarini hurmat qilsalar, mehrli bo'lishsa, iltimos ma'nosida muloqot qilishsa, o'zlarining hatti- xarakatlarini tinchlik, xotirjamlik bilan bajarishsa, oila a'zolari bir-birlarini tushunishsa, bunday oilalarda do'stona munosabatlar o'rnatiladi, oilaviy hayot uchun eng muhimi psixologik muhit yarvtiladi. Sog`lom fikr-mulohazalar qilinadi. Hozirgi vaqtda insonlar orasida bir-birini tushunmaslik holatlari juda ko'p uchrab turibdi. Bu shaxslararo munosabatlarni buzilishiga sabab bo'lmoqda. Insonlar hayotda bir birlarining diliqa ozor yetkazib qo'yishmoqda, bunda ular ularni yomon ko'rganliklarii uchun emas yoki yomon niyatda emas, balki ular bir-birlarini tushunmaganliklari uchun bu holatlar sodir etilmoqda. Muloqot jarayonida psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to'siqlarga duch kelmoqdamiz.

Psixologik to'siq-bu inson sheri giga ma'qul tushmay qoladigan, inkor etiladigan, eng ezgu hislari va niyatlarini samimiy izzor etishga javoban, qo'pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirga tushishdir. Bu shaxsiy imkoniyatlarni namoyish qilish va amalga oshirishga xalaqit beruvchi o'ziga xos ichki psixik tormozdir. Vaziyatli to'siqlar –bu suhbatdoshini bir xil vaziyatni turlicha tushunishi, unda turlicha yondoshuviga bog`liqdir. Mazmuniy to'siq –bu suhbatdoshni tushunmaganligi. U nimani nazarda tutayapti, qaday fikrni bayon qilmoqchi bu nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga olib borishi tufayli yuzaga keladi.

Motivatsion to'siqlar-bu shunday vaziyatda yuzaga keladiki, gapirayotgan odam o'zi bayon qilayotgan fikrini o'zi anglay olmaydi. Odamlar orasidagi suhbat ko'pincha ularning aqlini yetishmasiligi uchun emas, balki ularning o'zini qiziqtiradigan masalalar haqida gapirishga intilishi tufayli amalga oshmay qolishi mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim



masalalaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Psixologiya soxasida ham bolaning, oilasining va oila a'zolarining bir-biriga bo`lgan do`stona munosabati va oila muhitining sog`lom Yoshlar va zamon. Ijtimoiy-ma'naviy o`zgarishlarning o`ziga xos xususiyatlari, muammo va yechimlar talqini bo`lishiga aloxida e'tibor berilmoqda. Har bir oilaning sog`lom bo`lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib shaxs sifatida shakllanishi, oilada tutgan o`rni beqiyosdir. Oila bizning hayotimizdagi eng aziz va eng muqaddas dargohdir. Faqat oilagina insonning baxtli bo`lishi, o`zini kimgargadir kerakli his eta olishida hissasi kattadir. Oila jamiyatning kichik bir bo`lagidir. Oila qancha inoq ahil mustahkam bo`lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo`ladi.

Oila inson uchun muqaddas maskan. Kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi-bu farzand ko`rish orqali aholini qayta tiklashdir. Oilaviy munosabatlar tizimi juda murakkab va ancha teran mazmunga ega bo`lib, o`z ichiga er-xotin o`rtasidagi ota-onva farzandlar, aka-uka va opa-singillar o`rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini oladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri shaxs rivojlanishi uchun munosib sharoitni yaratishdir. Psixologik amaliyotda eng ko`p to`qnash kelishi mumkin bo`lgan masalalardan biri – ota-onalarning voyaga yetgan farzandlari bilan bo`ladigan munosabatlariga doir muammollarlardir. Hoziri vaqtida ota-onalarning farzandlari bilan muloqoti yo`qligi, ularning qanday yashayotganlari, qiziqishlari, ular bilan ochiq gaplashmasligidir. Ota-onalar ularning do`stlari kimligini bilishmaydi, “men hech narsani bilmiman” deb turishadi. Farzandlar ota-onalariga nisbatan behurmatlik qilishmoqda, arzimagan narsalardan janjal chiqarib nizolar chiqmoqda. Ular hozir u menga qo`pollik qiladi, menga yordam bermaydi, deb shikoyat ham qilishadi.



Hozirda oilada farzandlar omadsiz, baxtsiz, ular o`ylagandek yashamayapti, deb psixologga murojaat qilishmoqda. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Bu munosabatlar vaqtida bola psixologiyasida turli psixik jarayonlar vujudga keltiradi. Shu jihatdan biz oilada otaning shaxslararo munosabatlar jarayonida qanday munosabatini ifoda etish masalasini o`rganmoqdamiz. Qaysi oilada ota ta`siri farzandlari bilan munosabatlari yaxshi yo`lga qo`yilgan bo`lsa, shu oilada shaxslararo munosabatlar, oiladagi intizom, axloq, ijtimoiy me`yorlar talab darajasida shakllangan bo`ladi. Hozirgi vaqtida oilaning ijtimoiy vazifalaridan biri hozirgi zamon oilasida emotsiional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda. Uydagi janjallar, majoralar bolalar psixologiyasiga juda katta ta`sir qilmoqda. Oilani baholashda ikkita asosiy narsaga ahamiyat beriladi. Oilaning davomiyligi, barqarorligini sinchiklab o`rganish orqali unga baho berish mumkin. Oilalarimizda ota ta`siri farzandlari bilan munosabatlari yaxshi yo`lga qo`yilgan bo`lsa, shu oilalarimizda shaxslararo munosabatlar, oilada intizom, axloq talab darajasida bo`ladi. Oilada onaning farzandlar bilan munosabati ijobiy bo`lishi kerak. Ona va farzandlar o`rtasidagi munosabatlar qanchalik yaqin bo`lsa, farzandlar qo`llab-quvvatlansa, hayotdagi masala muammolarni mustaqil hal qilish imkonii ta`minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oiladagi munosabatlar mazmuni oiladagi barcha a`zolarning salomatligi faoliyati va jamiyatdagi tutgan o`rnini idrok qilishiga ta`sir etadi. Inson uchun oiladagi muhit eng ta`sirchan ahamiyatga ega. Bu muhit ta`sirida u o`zini erkin his etadi. Oila a`zolarining oiladagi munosabatlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim rolga ega. Ushbu maqola orqali hozirgi vaqtida oiladagi shaxslarning bir-birlariga bo`lgan munosabatlari oilaning tinchligida, ijtimoiy jihatdan sog`lom, moddiy jihatdan to`laqonli bo`lishi kerak deb o`yayman. Bu har bir shaxsning psixologiyasiga juda katta kuch bag`ishlaydi. Ishida unum bo`ladi, hayotga bo`lgan qiziqishlari, intilishlari juda ham kuchayadi. Sog`lom turmush



tarzini boshidan kechiradilar. Shunda bir-birlarini tushunadilar. Muloqotga, suhbatlashish san'atiga o'rghanish ijtimoiy-psixologik madaniyatni egallash, o'zi o`z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalari oshirishi, o`z gapi bilan suhbatdoshini qiziqtira olish qobiliyatini rivojlantirishga erishishi kerak.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. F.A.Akramova "Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi". T. "Shams ASA "2006
2. G` .Shoumarov "Oilani o`rganish psixologiyasi" 2008.
3. N.A.Sog`inov, G` .Shoumarov "Yosh o`zbek oilalarida yuzaga keladigan er xotin nizolarining etnik xususiyatlari" T-1993
- 4.G` .B.Shoumarov, I.O.Xaydarov, N.A.Sog`inov, F.A.Akramova
G.Solixova, G.Niyozmetova "Oila psixologiyasi" Toshkent 2011